

6-12 O'quvchilarning axloq kodeksi va qoidabuzarlik darajalari bo'yicha yo'riqnomasi

1-daraja harakatlari zo'rvonlikni ichiga olmaydi. 1-daraja harakatlari boshqalarning salomatligi, xavfsizligi yoki mol-mulkiga zarar keltirmaydi. Ijobiy sinf va maktab darajasidagi aralashuv va ko'makdan 1-daraja harakatlarini tuzatishda foydalaniladi. O'quvchilar 1-daraja harakatlar uchun basharti tegishli aralashuv va ko'makdan keyin bu ishlarni davom ettirmasa, ma'muriyatga olib kiritilmaydi. Bunday holatlarda, ma'muriyatga yuborish o'quvchiga nisbatan qo'llash mumkin bo'lgan eng maqbul aralashuvni aniqlashga yordam beradi.

- 101.A. Maktabga kechikish:** Maktabga yozma, qonuniy uzrli sababsiz belgilangan vaqtdan keyin kelish.
- 101.B. Darsga kechikish:** Darsga yozma, qonuniy uzrli sababsiz belgilangan vaqtdan keyin kelish.
- 102. Darsga kelmaslik yoki darsni o'tkazib yuborish:** Darsga yoki maktabga uzrsiz sababga ko'ra kelmaslik.
- 103. Noo'rin shaxsiy buyumlar:** O'qishdan chalg'itadigan, shaxsning mulkiga zarar keltiradigan yoki boshqa shaklda ta'lim olish jarayoniga xalaqit beradigan buyumlarni olib yurish va/yoki foydalanish. Noo'rin shaxsiy buyumlarga quyidagilar bilan cheklanmagan holda elektron qurilmalar, o'yinchoqlar, o'yin kartalari, shlyapalar, kiyimlar, ruxsat etilmagan taomlar, maktab hamshirasi tomonidan 229-qoida – Dorilardan foydalanish hamda 229.1-qoida – Tez yordam dorilariga ega bo'lish/foydalanish talablariga asosan ro'yxatdan o'tkazilmagan dorilar kiradi.
- 104. Tegajog'lik, jig'iga tegish yoki to'polon qilish:** Ta'lim olishdan boshqa maqsadda qilingan va ta'lim olish yoki maktab muhiti xavfsizligiga ta'sir etuvchi boshqa o'quvchi bilan jismoniy yoki og'zaki aloqa qilish.
- 105. Noo'rin til yoki ishoralar:** So'zlar va harakatlar, jumladan haqoratlaydigan va axloqsiz tildan foydalanish orqali bitta shaxs yoki bir guruh shaxslarni kamsitadigan, yerga uradigan yoki tahqirlaydigan yozma yoki og'zaki izohlar yoki ishoralar.
- 106. E'lon qilingan avtobusda yurish qoidalariga amal qilmaslik:** Avtobus yoki maktab uchun e'lon qilingan yoki yozma qoidalarining buzilishi; misollar: belgilanmagan o'rindiqda o'tirish, xodimlar talablarini bajarmaslik yoki avtobusga noto'g'ri bekatda chiqish yoki tushib qolish.
- 107. E'lon qilingan maktab qoidalariga amal qilmaslik:** Maxsus e'lon qilingan yoki yozma maktab yoki sinf qoidalarini buzish. Misollarga cheklanmagan holda quyidagilar kiradi: takroran saqich chaynash, takroran darsda gaplashish, yugurish, narsalar uloqtirish va dres kod talablarining buzilishi.
- 111. Elektron yoki telekommunikatsion qurilmalarga egalik qilish.** O'quvchilar elektron qurilmalarga faqat Kengash va maktab qoidalari ruxsatiga ko'ra egalik qilishlari mumkin. Maktabdagi intizom qo'mitalari bunday cheklovlarni Kengashning 216-qoidasi – Elektron qurilmalarga mos ravishda o'rnatishi mumkin. Elektron qurilmalar cheklovlariga oid maxsus ma'lumotlar haqida o'quvchilarga va ota-onalarga/vasiylarga bunday cheklovlar kiritilishidan oldin xabar beriladi.

Elektron qurilmalar cheklovi quyidagi holatlarda qo'llanilmaydi: (1) o'quvchi o't o'chirish, tez yordam yoki qutqaruvchilar guruhida ko'ngilli bo'lsa; yoki (2) o'quvchi yaqin oila a'zosining salomatlik holati tufayli shunday qurilmaga ehtiyoji bo'lsa.

Elektron qurilmalar cheklovlarini buzgan o'quvchilarga intizomiy jazo qo'llanilishi va qurilmasi konfiskatsiya qilinishi mumkin.

- 112. Darsga xalaqit qilish:** O'qituvchi tomonidan ta'lim olishga xalaqit beradigan deb topilgan og'zaki yoki jismoniy harakatlar. Misollar quyidagilardan iborat: sinfda takroran gaplashish va navbatsiz gapirish, o'ta qattiq ohangda gapirish, yugurish, narsalar uloqtirish, sinf qoidalariga amal qilmaslik.

114 Kompyuterlar/kompyuter tarmoqlari/elektron qurilmalardan noo'rin foydalanish: O'quvchi Maktab okrugining tarmoqdan foydalanish va xavfsizlik siyosatini, har qanday maktabda kompyuterdan yoki mobil hisoblash qurilmasidan foydalanish yo'riqnomalarini buzuvchi, jumladan boshqalarning salomatligi, xavfsizligi yoki mol-mulkiga tahdid uyg'otmasligi mumkin bo'lgan harakatlarni amalga oshirmasligi lozim:

- A. Kompyuterlar, kompyuter tarmoqlari yoki elektron qurilmalardan bunday harakat ruxsat etilmagan paytda foydalanish
- B. Maktab okrugi qurilmalariga ruxsat etilmagan o'yinlar, dasturlar, fayllar yoki boshqa elektron media fayllarni qasddan yuklash
- C. Maktab tizimlarida boshqa shaxsning nomidan, anonim nomi yoki taxalluslarini o'zlashtirish
- D. Maktab okrugining tarmoqlardan foydalanish va xavfsizlik siyosatini buzuvchi kontenga yoki maqsadga ega bo'lgan boshqa tarmoqlarga havolalar yaratish
- E. Xavfsizlikka ochiqdan-ochiq xatar tug'dirmaydigan haqoratli va gij-gijlaydigan harakatlar

Kompyuterga oid qoidabuzarliklar uchun intizomiy jazo qo'llashdan oldin tegishli virtual etiket qoidalari o'rgatiladi va kuchaytiriladi.

1-daraja – Yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi aralashuv (Chetlatishga oid intizomiy choralarga muqobil variantlar)

Quyidagi ro'yxat ehtimoliy variantlar menyusi sifatida taqdim etilgan va ketma-ket foydalanishni nazarda tutmaydi. Aralashuvlar barchaga mos keladigan bitta yondashuv bilan emas, balki individual amalga oshirilishi kerak.

- Qayta tiklovchi amaliyotlardan foydalanish (ya'ni emotsional bayonotlar, qayta tiklovchi savollar, doiralar, kichik eksprompt anjumanlar va h.k.)
- Xulq-atvorning asosiy sababini aniqlash uchun ko'pbosqichli ko'mak tizimiga (MTSS) yo'naltirish jarayoni
- Sinf va maktab miqyosida o'quvchilarni qayta o'qitish uchun PBIS tizimidan foydalanish
- Maktabdagi ziddiyatlarni hal etish dasturlariga (masalan, tengqurlar vositachiligi) yo'naltirish
- O'quvchi/o'qituvchi anjumani
- Ota-ona yoki vasiy/o'qituvchi anjumani
- Qayta o'qitish/namuna kutilmalari
- O'quvchi/ma'mur anjumani
- Maslahatchilar/yo'naltirish anjumanini o'tkazish orqali aralashuv
- Yozma aks ettirish vazifasi
- O'quvchining alohida rejalashtirish vositalarini ishlab chiqish, ko'rib chiqish yoki o'zgartirish (masalan, Axloqni qo'llabquvvatlash rejasi)
- Jadval yoki darsga o'zgartirish kiritish (ota-ona/vasiyni ogohlantirgan holda)
- Alohida/guruh ichida maslahatlashuv
- Oldini olish (masalan, jahlni boshqarish, agressiyani almashtirish, tashkiliy ko'nikmalar kabi ijtimoiy emotsional ko'nikmalarni o'rgatish guruhlari) va/yoki aralashuv (masalan, xulqiy salomatlik maslahatlashuvi) xizmatlari uchun O'quvchilarga yordam dasturiga (SAP) yo'naltirish
- Maktab davomatini yaxshilash anjumani/rejasi
- O'quvchining axloq rejasi
- O'rgatish dasturiga yo'llash
- Maktab okrugi tasdiqlagan hamjamiyat tashkilotiga (CBO) yo'naltirish

- Hamjamiyatga xizmat qilish (ota-ona/vasiy ruxsati bilan)
- Chetlatishga oid intizomiy choralarning (chetlatuvchi intizomiy choralarga axloq tuzatish, maktabda chetlatish, maktabdan tashqarida chetlatish kiradi) boshqa tegishli muqobil variantlari

2-daraja harakatlari jiddiyroq tabiatga ega va boshqa insonlarning salomatligi, xavfsizligi yoki mol-mulkiga tahdid uyg'otishi mumkin. 2-darajali harakat sodir bo'lganda bu haqda maktab ma'muriga xabar beriladi. 6-12 sinf o'quvchilari 2-daraja harakatlar uchun o'qishdan chetlatilishi mumkin. **Kursiv bilan yozilgan harakatlar uchun Maktab kodeksining 1303-A(b) bo'limi va 22 Pa. kodeksining 10.22-bo'limiga asosan yo'llash va maslahatlashish.**

***202. Maktab mol-mulkiga zarar yetkazish, buzish yoki vandalizm (Zo'rvon harakat):** Maktab mulkiga zarar yetkazish yoki zarar yetkazishga urinish.

***203. Xususiy mol-mulkka zarar yetkazish, buzish yoki vandalizm (Zo'rvon harakat):** Xususiy mulkka sezilarli zarar yetkazish yoki zarar yetkazishga urinish

209. Dars soatlarida o'quvchilarning ruxsat etilmagan joyda bo'lishlari (Nozo'rvon harakat):

209.A. Maktab hududida: O'quvchi maktab hududining ruxsat etilmagan biror qismida bo'lmasligi yoki biron maktab xodimi tomonidan ketish buyrug'i berilgandan yoki so'ralgandan keyin qolmasligi kerak.

209.B. Xususiy yoki davlat mulkida: O'quvchi belgilangan maktab soatlarida maktab mulki yonidagi xususiy yoki davlat mulkining biror qismida bo'lmasligi kerak. Dars soatlarida o'quvchilar uzrli sabablari bo'lmagan taqdirda maktab hududida bo'lishlari lozim.

210. Chekish, veyping va tamaki iste'moli (Nozo'rvon harakat): Maktab binolarida, maktab avtobuslarida yoki maktab egalik qiladigan, ijaraga olgan yoki uning nazoratidagi har qanday joyda chekish, tamaki iste'mol qilish yoki elektron chekish vositalaridan foydalanish yoki egalik qilish.

212. Akademik vijdotsizlik (Nozo'rvon): Akademik vijdotsizlikka quyidagilar bilan cheklanmagan holda har qanday ko'rinishdagi aldov, plagiat, test shakllariga imtihondan oldin egalik qilish, boshqalarning ishini o'z ishidek qilib ko'rsatish hamda imtihonlar, loyihalar va vazifalar paytida ruxsat etilmagan yordamdan foydalanish kiradi.

213. Xarasment (Zo'rvon harakat): Irq, teri rangi, yosh, e'tiqod, din, jins, gender (jumladan, jinsiy mansublik), jinsiy orientatsiya, kelib chiqish, millat, oilaviy holat, homiladorlik yoki nogironlik asosidagi diskriminatsiya shakli bo'lib, unga xush ko'maslik yoki zarar yetkazuvchi, kamsituvchi, shaxsning maktab yoki maktabga aloqador ko'rsatkichlariga aralashish kiradi va bu harakatlar yetarlicha og'ir, doimiy yoki keng yoyilgan bo'lishi hamda shikoyat qilayotgan shaxsning nazdida bu qo'rqituvchi, tahdid soluvchi yoki kamsituvchi ta'lim muhitini yaratishi mumkin.

Xarasmentning alohida qoidabuzarlik turlari quyida tasvirlangan:

***213.A. Jinsiy xarasment:** Jinsiy jihatga asoslangan harakatlar bo'lib, u ham xush ko'rmaslik hamda xolis shaxs tomonidan Maktab okrugi dasturidan teng foydalanish imkoniyatini bermaydigan og'ir, doimiy yoki keng yoyilgan deb topiladi. Yordam, imtiyoz yoki xizmat evaziga istalmagan holda jinsiy harakatlarni talab etadigan o'zaro kelishilgan jinsiy xarasmentni ham Maktab okrugi siyosati qamraydi. Jinsiy tajovuz, uchrashuvdagi zo'rvonlik, uydagi zo'rvonlik hamda ta'qib qilish ham Maktab okrugi qoidalariga ko'ra jinsiy xarasment turi sanaladi.

213.B. Irqiy/etnik xarasment: Irq, teri rangi yoki millatdan kelib chiquvchi diskriminatsiya

bo'lib, unga insonning amaldagi yoki qabul qilingan irqi, terisi rangi, millati, etnik mansubligi va kelib chiqishiga asoslangan diskriminatsiya kiradi. Bunga shaxs yoki uning ajdodlari kelgan mamlakat, dunyo mintaqasi yoki joyiga asoslangan diskriminatsiya; shaxsning inglizchani yaxshi bilmasligi yoki inglizchani o'rganish holati; yoki shaxsning amaldagi yoki qabul qilingan umumiy kelib chiqishi yoki etnik xususiyatlari, jumladan shunday xususiyatlarni ko'rsatuvchi dinga mansublik (hindu, yahudiy, musulmon va sikh kabi dinlarga mansub shaxslar) kiradi.

213.C. Genderga oid xarasment: unga jinsiy stereotiplarga asoslangan og'zaki, og'zaki bo'lmagan yoki jismoniy agressiya, qo'rqitish yoki dushmanlik harakatlari kiradi. Shu sababli, o'quvchining erkaklik va ayollikning stereotip qarashlariga mos kelmasligi sababli amalga oshiriladigan xarasment jinsiy diskriminatsiya deb qabul qilinadi. Genderga asoslangan xarasment o'quvchining ta'limga oid yordam, imtiyozlar, xizmatlar yoki davolanishni olishga bo'lgan imkoniyatlarini cheklasa yoki rad etsa, bu Maktab okrugi qoidalari va/yoki qonunning IX-qismi buzilishiga olib kelishi mumkin.

213.D. Nogironlikka oid xarasment: O'quvchining maktab dasturidagi imtiyozlar, xizmatlar yoki imkoniyatlarda ishtirok etishi yoki foydalanishini rad etuvchi yoki aralashuvchi dushmanona muhitni yaratuvchi o'quvchini nogironligiga asoslangan qo'rqitish yoki kamsituvchi harakatlar. Xarasmentga jismoniy tahdid soluvchi, zarar yetkazuvchi yoki kamsituvchi og'zaki harakatlar va laqab qo'yish hamda chizma va yozma firklar kabi noog'zaki harakatlar kiradi.

213.E. Xarasmentning boshqa shakllari: Maktab okrugining ta'qib qilish/xarasmentni taqiqlash qoidalari buzuvchi, jinsiy xarasment, irqiy/etnik xarasment, genderga oid xarasment yoki nogironlikka oid xarasment ta'riflariga mos kelmaydigan har qanday boshqa harakatlar.

214. Kompyuterlar/kompyuter tarmoqlari/elektron qurilmalardan noo'rin foydalanish (Nozo'ravon harakat): O'quvchi quyidagilar bilan cheklanmagan holda, Maktab okrugining tarmoqdan foydalanish va xavfsizlik siyosatini, har qanday maktabda kompyuterdan yoki mobil hisoblash qurilmasidan foydalanish yo'riqnomalari yoki o'quvchi yoki o'quvchining ota-onasi tomonidan texnologik resurslardan foydalanishga oid imzolangan kelishuvlarni buzuvchi harakatlarni amalga oshirmasligi lozim:

- A. Haqoratlovchi, axloqsiz, jinsiy yo'naltirilgan, tahdid qiluvchi, tahqirlovchi, boshqa shaxsning obro'siga putur yetkazuvchi yoki noqonuniy elektron xabarlar, jumladan, o'quvchilarning nomaqbul xatti-harakati, kiberta'qib va "seksting" videolarini yuborish, joylash, yetkazish yoki ularga egalik qilish, maktab mulkida yoki tashqarisida ta'lim muhitini jiddiy ravishda buzishga olib keladigan yoki maktabdagi boshqa o'quvchining huquqlarini poymol etadigan xatti-harakatlarni qilish.
- B. Okrug texnologiya resurslarini, jumladan, lekin bular bilan cheklanmagan holda, kompyuterlar va tegishli asbob-uskunalar, Okrug ma'lumotlari, boshqalarning ma'lumotlari yoki Okrug tizimiga ulangan boshqa tarmoqlar, jumladan, xatti-harakatlar ta'lim muhitini jiddiy ravishda buzishga olib keladigan bo'lsa, maktabdan tashqaridagi mulkni o'zgartirish, yo'q qilish yoki o'chirishga urinish.
- C. Okrug o'quvchilari, xodimlar, kengash a'zolari yoki ko'ngillilari, jumladan, ta'lim muhitida jiddiy buzilishlarga olib keladigan yoki maktabdagi boshqa o'quvchilarning huquqlarini buzadigan bo'lsa, maktab mulkidan tashqarida qo'rqitish yoki tahqirlash uchun internet yoki boshqa elektron aloqa vositalaridan foydalanish.
- D. Noqonuniy xatti-harakatni amalga oshirish yoki undash yoki maktab xavfsizligiga tahdid qilish, jumladan xatt-harakatlar ta'lim muhitida jiddiy buzilishlarga olib keladigan yoki maktabdagi boshqa

o'quvchilarning huquqlarini buzadigan bo'lsa, maktabdan tashqaridagi mulkka tahdid qilish uchun internet yoki boshqa elektron aloqadan foydalanish.

- E. Okrug, o'quvchilar yoki xodimlarning parollari yoki boshqa xavfsizlikka aloqador ma'lumotlariga kirishga yoki ularni chetlab o'tishga urinish yoki kompyuter viruslarini yuklash yoki yaratish, jumladan xatti-harakatlar ta'lim muhitida jiddiy buzilishlarga olib keladigan bo'lsa, maktabdan tashqaridagi mulkda bu ishlarni amalga oshirish.

Kompyuterga oid qoidabuzarliklar uchun intizomiy jazo qo'llashdan oldin tegishli virtual etiket qoidalari o'rgatiladi va kuchaytiriladi.

216. Urushish (Zo'ravon harakat): Surishtiruv o'tkazilganda qaysi o'quvchi agressor yoki janjalni boshlagani noaniq bo'lgan holatda ikki o'quvchi orasida jismoniy zo'ravonlikdan foydalanish.

217. A. Ta'qib qilish (Zo'ravon harakat): Ta'qib qilish boshqa o'quvchi yoki o'quvchilarga qarshi maktab hududida quyidagi maqsadlarni ko'zlagan holda og'ir, doimiy yoki keng yoyilgan qasddan amalga oshirilgan elektron, yozma, og'zaki yoki jismoniy harakat yoki harakatlar seriyasi:

1. O'quvchining ta'lim olishiga sezilarli darajada ta'sir o'tkazadigan qo'rqituvchi yoki dushmanona muhit yaratish; yoki
2. O'quvchiga jismoniy, ruhiy yoki aqliy zarar yetkazish; yoki
3. O'quvchini aniq jismoniy yoki ruhiy zarar yetkazish qo'ruviga solish; yoki
4. O'quvchini shaxsiy mol-mulkiga aniq zarar yetkazish yoki yo'qotish qo'ruviga solish

217.B. Kiberta'qib qilish (Zo'ravon harakat): Ta'qib qilishga kiberta'qib qilish va/yoki elektron aloqa qurilmalari orqali ta'qib qilish kiradi, bu ijtimoiy tarmoqlar, e-pochta, oniy xabarlar, matnli xabarlar, tvitlar (Twitter orqali), bloglar, surat va videolarni ulashish, chat xonalari, asboblarni panellari yoki vebsaytlar orqali amalga oshiriladi. Kiberta'qib qilishga ayrim mezonlar ostida maktabdan tashqaridagi harakatlar ham kirishi mumkin.

Ta'qib qilish/xarasmentni taqiqlash siyosatining to'liq varianti, shikoyat kiritish va surishtiruv tartib-qoidalari bilan Maktab okrugining veb-sayti www.pps.k12.pa.us/Page/481 da, har bir bino va sinfda tanishish mumkin.

218. Sinash (Zo'ravon harakat): Sinash biror shaxs qasddan, bilib turib yoki e'tiborsiz shaklda boshqa o'quvchini tashkilotga qabul qilish, kiritish yoki bog'lash maqsadida yoki tashkilotdagi a'zolikni yoki maqomni davom ettirish yoki kengaytirish maqsadida o'quvchini quyidagilarni amalga oshirishga sabab bo'lsa, majburlasa amalga oshgan bo'ladi:

1. Federal yoki shtat jinoiy qonunchiligini buzish.
2. O'quvchini ruhiy yoki jismoniy zarar ko'rish xatariga tushiradigan har qanday taom, suyuqlik, alkohol ichimlik, narkotik yoki boshqa moddalar iste'mol qilish.
3. Ruhiy tabiatga ega shafqatsizlikka chidash, jumladan, shaxsning ruhiy salomatligi yoki qadr-qimmatiga salbiy ta'sir etuvchi harakat, uyqudan ayirish, ijtimoiy aloqadan chetlatish yoki haddan tashqari uyaltiruvchi harakatlarni amalga oshirish.
4. Jinsiy shafqatsizlikka chidash.
5. O'quvchining jarohat olishi ehtimoliga olib keladigan har qanday harakatlarga chidash.

Yuqoridagi harakatlar o'quvchining roziligi olingan bo'lishidan qat'iy nazar sinash deb hisoblanadi.

219. A. Haqorat va beadablik/og'zaki janjallashish (o'quvchilar bilan) (Nozo'ravon harakat): So'kinish, qarq'ash, beodob ishoralar qilish yoki boshqa o'quvchiga nisbatan og'zaki haqoratlovchi tildan foydalanish.

219.B. Haqorat va beadablik/og'zaki janjallashish (xodimlar bilan) (Nozo'ra von harakat): So'kinish, qarq'ash, beodob ishoralar qilish yoki xodimlarga nisbatan og'zaki haqoratlovchi tildan foydalanish.

220. A. Jismoniy zo'ra vonlik/janjal (o'quvchilar bilan) (Zo'ra von harakat): O'quvchi tomonidan boshqa o'quvchiga nisbatan zo'ra vonlik qilinishi va buning oqibatida maktab ma'muri tomonidan jiddiy jarohat yetkazilmagan deb topilgan, ammo jismoniy zo'ra vonlikni boshlagan odam aniqlangan va jismoniy kontakt amalga oshirilgan holatlar.

220.B. Jismoniy zo'ra vonlik/janjal (xodimlar bilan) (Zo'ra von harakat): O'quvchi tomonidan xodimga nisbatan zo'ra vonlik qilinishi va buning oqibatida maktab ma'muri tomonidan jiddiy jarohat yetkazilmagan deb topilgan, ammo jismoniy zo'ra vonlikni boshlagan odam aniqlangan va jismoniy kontakt amalga oshirilgan holatlar.

221. Terrorchilik tahdidlari (Zo'ra von harakat): Boshqalarni qo'rqitish niyatida jinoyat qilish bilan bevosita yoki bilvosita tahdid qilish; bundan maqsad bino, odamlar gavjum joylar yoki jamoat transportini evakuatsiya qilishga erishish; yoki boshqa shaklda jamoat tartibini jiddiy buzish yoki bunday qo'rqitish yoki noqulaylik tug'dirishning oqibatlarini o'ylamasdan odamlarni qo'rqitish yoki jamoatda tartibsizlik yaratish

222. Nomunosib jinsiy axloq (Nozo'ra von harakat): O'zining yoki boshqa odamning jinsiy a'zolari, ko'kraklari yoki dumbasini ko'rsatish yoki teginish. Bunga maktab hududidagi jinsiy aloqa, oral jinsiy aloqa yoki jinsiy aloqa simulyatsiyasi kiradi.

***223. Tinchlikni buzish yoki jang (Zo'ra von harakat):** Bir guruh shaxslar orasida jiddiy tartibsizlik yoki jang keltirib chiqarish va bu bir necha maktab xodimlarining ushbu tartibsizlikni bostirish uchun aralashuviga olib kelishi.

225. Tahdidlar/Qo'rqitish (Nozo'ra von harakat): : Zo'ra vonlikni amalga oshirish tahdidi. Ushbu qoidabuzarliklar darajasida tahdidlar qurbon va jamoat xavfsizligiga minimal xatar tug'diradi. Tahdid aniq va bevosita qaratilgan emas; tahdidagi ma'lumot bir xil emas, haqiqatdan uzoq yoki tafsilotlari yo'q; tahdid haqiqatdan uzoq; tahdid mazmuni shaxs uni amalga oshirmasligini ko'rsatadi. Tahdidlar og'zaki, yozma yoki ishoralar bilan qilinishi mumkin.

***226.A. Maktab mulkini o'g'rilash, bosqinchilik yoki o'marish (Zo'ra von harakat):** O'quvchi maktab mulkini o'g'irlashi, bosqinchilik qilishi yoki o'marish harakatlarini amalga oshirmasligi lozim

***226.B. O'quvchining shaxsiy mulkini o'g'irlash, bosqinchilik, yoki o'marish (Zo'ra von harakat):** O'quvchi boshqa o'quvchining mulkini o'g'irlashi, bosqinchilik qilishi yoki o'marish harakatlarini amalga oshirmasligi lozim.

2-daraja – Yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi aralashuvga misollar

Quyidagi ro'yxat ehtimoliy variantlar menyusi sifatida taqdim etilgan va ketma-ket foydalanishni nazarda tutmaydi. Aralashuvlar barchaga mos keladigan bitta yondashuv bilan emas, balki individual amalga oshirilishi kerak.

- Qayta tiklovchi amaliyotlardan foydalanish (ya'ni emotsional bayonotlar, qayta tiklovchi savollar, doiralar, kichik eksprompt anjumanlar, rasmiy qayta tiklovchi anjumanlar va h.k.)
- Ko'pbosqichli ko'mak tizimiga (MTSS) yo'naltirish jarayoni
- Maktabdagi nizolarni hal etuvchi dasturlarga yo'llash (masalan, tengqurlar vositachiligi, qayta tiklash anjumani) •
- O'quvchi/o'qituvchi anjumani
- Ota-ona yoki vasiy/o'qituvchi anjumani

<ul style="list-style-type: none"> • Qayta o'qitish/namuna kutilmalari • O'quvchi/ma'mur anjumani • Maslahatchilar/yo'naltirish anjumanini o'tkazish orqali aralashuv • Yozma aks ettirish vazifasi • O'quvchining alohida rejalashtirish vositalarini ishlab chiqish, ko'rib chiqish yoki o'zgartirish (masalan, Axloqni qo'llabquvvatlash rejasi) • Jadval yoki darsga o'zgartirish kiritish (ota-ona/vasiyni ogohlantirgan holda) • Alohida/guruh ichida maslahatlashuv • Oldini olish (masalan, jahlni boshqarish, agressiyani almashtirish, tashkiliy ko'nikmalar kabi ijtimoiy emotsional ko'nikmalarni o'rgatish guruhlari) va/yoki aralashuv (masalan, xulqiy salomatlik maslahatlashuvi) xizmatlari uchun O'quvchilarga yordam dasturiga (SAP) yo'naltirish • O'quvchining axloq rejasi • O'rgatish dasturiga yo'llash • Maktab okrugi tasdiqlagan hamjamiyat tashkilotiga (CBO) yo'naltirish • Hamjamiyatga xizmat qilish (ota-onasi ruxsati bilan)
<ul style="list-style-type: none"> • Chetlatishga oid intizomiy choralarning (chetlatuvchi intizomiy choralarga axloq tuzatish, maktabda chetlatish, maktabdan tashqarida chetlatish kiradi) boshqa tegishli muqobil variantlari
<p>Foydalanilgan yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi aralashuvdan keyingi yoki qo'shimcha tavsiya etilgan intizomiy choralar misollari (2-daraja)</p>
<ul style="list-style-type: none"> • Ushlab turish: Dars soatlaridan tashqari maktabdagi maxsus joyga vazifa bajarishga yuborish (masalan, darsdan oldin, darsdan keyin, yoki dars kunlaridan tashqari) • Maktabda chetlatish: Ma'lum o'qish xonasida dars va vazifalar o'tishdan chetlatish. Har bir maktabning PBIS tizimidan kelib chiqib bu vazifaga "Maktabda chetlatish" dan boshqacha nom ham berish mumkin. Maktabda chetlatish faqatgina superintendant va superintendant yordamchisi tomonidan O'quvchilarga yordam ko'rsatish xizmatlari uchun chiqarilgan ma'muriy yo'riqnomaga asosan belgilanishi mumkin. • Maktabda chetlatishning boshqa tegishli muqobil variantlari • Dala safarlari, qurultoylar yoki maxsus imtiyozlarni to'xtatish • O'qishdan tashqari amaliyotlardan chetlatish • Transportda yurish imtiyozlarini to'xtatish • Maxsus tadbirlar yoki aksiya mashqlaridan chetlatish • Qisqa muddatga maktabdan tashqarida chetlatish (1- 3kun)
<p>Maktabdan tashqarida chetlatish olgan o'quvchi bir xil qoidabuzarlik uchun ikki marta intizomiy jazoga tortilmasligi kerak. Agar o'quvchi maktabdan tashqari chetlatish jazosini o'tash vaqtida dala safarlari, qurultoylar yoki boshqa tadbirlar o'tkazilsa, ular bunday tadbirda qatnasha olmaydi; ammo, agar tadbir o'quvchi maktabdan tashqarida chetlatish jazosini o'tayotgan vaqtdan tashqarida sodir bo'lsa, xavfsizlik bilan bog'liq muammolar bo'lmagan holatlarda ular bunday tadbirdan chetlatilmaydi.</p>

3-darajali harakatlar tabiatiga ko'ra jiddiy sanaladi va yuz berganda ular har qanday insonning salomatligi, xavfsizligi yoki mulkiga tahdid solishi mumkin. 3-darajali harakat sodir bo'lganda bu haqda maktab ma'muriga xabar beriladi. O'quvchilar 3-darajali harakatlarning istalgani uchun chetlatilishlari mumkin. Maktab ma'murlari hujum qilish, og'irlashtiruvchi hujum qilish yoki qurolga oid ayblovlarni e'lon qilishdan oldin o'zlari tayinlagan superintendant yordamchisi bilan maslahatlashishlari lozim. Kursiv bilan yozilgan harakatlar uchun Maktab kodeksining 1303-A(b) bo'limi va 22 Pa. kodeksining 10.22-bo'limiga asosan yo'llash va maslahatlashish.

***302.A. Maktab mol-mulkiga zarar yetkazish, buzish yoki vandalizm:** O'quvchi qasddan maktab mulkiga zarar yetkazishga yoki zarar yetkazishga urinmasligi yoki maktab mulkini o'g'irlamasligi yoki o'g'irlashga urinmasligi

lozim. Ushbu qoidabuzarlik darajasida zarar, buzish yoki o'g'rilik yuz dollardan (\$100) oshadi.

***302.B. Shaxsiy mol-mulkka zarar yetkazish, buzish yoki vandalizm:** o'quvchi qasddan xususiy mulkka zarar yetkazishga yoki zarar yetkazishga urinmasligi yoki xususiy mulkni o'g'irlamasligi yoki o'g'irlashga urinmasligi lozim. Qimmatli xususiy buyumlar maktabga olib kelinmasligi lozim. Ushbu qoidabuzarlik darajasida zarar, buzish yoki o'g'rilik yuz dollardan (\$100) oshadi.

***307. Marixuana, narkotik tashuvchi buyum va alkogolni ichiga oluvchi jiddiy bo'lmagan narkotiklarga oid qoidabuzarliklar:** O'quvchi hech qanday mast qiluvchi moddani olib yurmasligi, foydalanmasligi yoki ta'siri ostida bo'lmasligi lozim. Ammo, chetlatishga oid intizomiy chorani kamaytirish uchun, [PLACEHOLDER #].- betdagi narkotikka oid qoidabuzarliklar toifalariga asosan qoidabuzarlik darajasiga qarab chora ko'rish belgilangan. 307-qoidani buzishga bir o'quv yilida 5 gramdan kam marixuana, alkogol va narkotik tashuvchi buyumga oid birinchi bor qoida buzilishi kiradi. O'quvchi tomonidan narkotik moddadan ro'yxatga olingan tibbiyot xodimining tibbiy ruxsati bilan foydalanish ushbu qoidani buzish sanalmaydi, ammo Maktab okrugining Dorilardan foydalanish qoidalari talabini buzish deb sanalishi mumkin.

Dorilardan foydalanish qoidalari talablarini bajarmaslik intizomiy chora qo'llanilishiga olib kelishi mumkin.

313. Xarasment: irq, teri rangi, yosh, e'tiqod, din, jins, gender (jumladan, jinsiy mansublik), jinsiy orientatsiya, kelib chiqish, millat, oilaviy holat, homiladorlik yoki nogironlik asosidagi diskriminatsiya shakli bo'lib, unga xush ko'maslik yoki zarar yetkazuvchi, kamsituvchi, shaxsning maktab yoki maktabga aloqador ko'rsatkichlariga aralashish kiradi va bu harakatlar yetarlicha og'ir, doimiy yoki keng yoyilgan bo'lishi hamda shikoyat qilayotgan shaxsning nazdida bu qo'rqituvchi, tahdid soluvchi yoki kamsituvchi ta'lim muhitini yaratishi mumkin.

Xatti-harakatlar juda dahshatli, xavfli yoki noqonuniy bo'lib, Okrug uni faqat aralashuv orqali tuzatish mumkinligini kutmasa, xarasment 2-darajadan farqli o'laroq, 3-daraja qoidabuzarligi hisoblanadi.

Xarasmentning alohida qoidabuzarlik turlari quyida tasvirlangan:

***313.A. Jinsiy xarasment:** Jinsiy jihatga asoslangan harakatlar bo'lib, u ham xush ko'rmaslik hamda xolis shaxs tomonidan Maktab okrugi dasturidan teng foydalanish imkoniyatini bermaydigan og'ir, doimiy yoki keng yoyilgan deb topiladi. Yordam, imtiyoz yoki xizmat evaziga istalmagan holda jinsiy harakatlarni talab etadigan o'zaro kelishilgan jinsiy xarasmentni ham Maktab okrugi siyosati qamraydi. Jinsiy tajovuz, uchrashuvdagi zo'ravonlik, uydagi zo'ravonlik hamda ta'qib qilish ham Maktab okrugi qoidalariga ko'ra jinsiy xarasment turi sanaladi.

313.B. Irqiy/etnik xarasment: Irq, teri rangi yoki millatdan kelib chiquvchi diskriminatsiya bo'lib, unga insonning amaldagi yoki qabul qilingan irqi, terisi rangi, millati, etnik mansubligi va kelib chiqishiga asoslangan diskriminatsiya kiradi. Bunga shaxs yoki uning ajdodlari kelgan mamlakat, dunyo mintaqasi yoki joyiga asoslangan diskriminatsiya; shaxsning inglizchani yaxshi bilmasligi yoki inglizchani o'rganish holati; yoki shaxsning amaldagi yoki qabul qilingan umumiy kelib chiqishi yoki etnik xususiyatlari, jumladan shunday xususiyatlarni ko'rsatuvchi dinga mansublik (hindu, yahudiy, musulmon va sikx kabi dinlarga mansub shaxslar) kiradi.

313.C. Genderga oid xarasment: Unga jinsiy stereotiplarga asoslangan og'zaki, og'zaki bo'lmagan yoki jismoniy agressiya, qo'rqitish yoki dushmanlik harakatlari kiradi. Shu sababli, o'quvchining erkaklik va ayollikning stereotip qarashlariga mos kelmasligi sababli amalga oshiriladigan xarasment jinsiy diskriminatsiya deb qabul qilinadi. Genderga asoslangan xarasment o'quvchining ta'limga oid yordam, imtiyozlar, xizmatlar yoki davolanishni olishga bo'lgan imkoniyatlarini cheklasa yoki rad etsa, bu Maktab okrugi qoidalari va/yoki qonunning IX-qismi buzilishiga olib kelishi mumkin.

313.D. Nogironlikka oid xarasment: O'quvchining maktab dasturidagi imtiyozlar, xizmatlar yoki imkoniyatlarda ishtirok etishi yoki foydalanishini rad etuvchi yoki aralashuvchi dushmanona muhitni yaratuvchi o'quvchini nogironligiga asoslangan qo'rqitish yoki kamsituvchi harakatlar. Xarasmentga jismoniy tahdid soluvchi, zarar yetkazuvchi yoki kamsituvchi og'zaki harakatlar va laqab qo'yish hamda chizma va yozma firklar kabi noog'zaki harakatlar kiradi.

313.E. Xarasmentning boshqa shakllari: Maktab okrugining ta'qib qilish/xarasmentni taqiqlash qoidalarini buzuvchi, jinsiy xarasment, irqiy/etnik xarasment, genderga oid xarasment yoki nogironlikka oid xarasment ta'riflariga mos kelmaydigan har qanday boshqa harakatlar.

314. Kompyuterlar/kompyuter tarmoqlari/elektron qurilmalardan noo'rin foydalanish: O'quvchi quyidagi va shaxsiy qurilmalar bilan cheklanmagan holda Maktab okrugining tarmoqdan foydalanish va xavfsizlik siyosatini, har qanday maktabda kompyuterdan yoki mobil hisoblash qurilmasidan foydalanish yo'riqnomalarini buzuvchi, harakatlarni amalga oshirmasligi lozim:

- A. Nafrat xatlari, diskriminatsiya qiluvchi fikrlar hamda xavfsizlikka ochiq xavf tug'diruvchi haqoratli va gij-gijlaydigan xabarlar
- B. Elektron qurilmadan axloqsiz yoki pornografik materiallarni ko'rsatish yoki ko'rishda foydalanish
- C. Jinsiy ochiq tildan foydalanish yoki rasmlarni, jumladan shaxsiy rasmlarni yuborish
- D. Tarmoq apparaturasi, dasturiy ta'minotini yoki ma'lumotlarni buzish, o'zgartirish yoki noto'g'ri maqsadlarda foydalanish
- E. Janglarni videoga olish yoki shaxsiy daxlsizlik kutiladigan joydagi shaxslarni videoga olish
- F. O'quvchilarning nojo'ya harakatlarini ijtimoiy media saytlarga joylash va shu orqali maktab jamoasi yoki maktab jamoasidagi shaxslarga salbiy ta'sir o'tkazish.

Kompyuterga oid qoidabuzarliklar uchun intizomiy jazo qo'llashdan oldin tegishli virtual etiket qoidalari o'rgatiladi va kuchaytiriladi.

317.A. Ta'qib qilish: Ta'qib qilish boshqa o'quvchi yoki o'quvchilarga qarshi maktab hududida quyidagi maqsadlarni ko'zlagan holda og'ir, doimiy yoki keng yoyilgan qasddan amalga oshirilgan elektron, yozma, og'zaki yoki jismoniy harakat yoki harakatlar seriyasi:

1. O'quvchining ta'lim olishiga sezilarli darajada ta'sir o'tkazadigan qo'rqituvchi yoki dushmanona muhit yaratish; yoki
2. O'quvchiga jismoniy, ruhiy yoki aqliy zarar yetkazish; yoki
3. O'quvchini aniq jismoniy yoki ruhiy zarar yetkazish qo'rquviga solish; yoki
4. O'quvchini shaxsiy mol-mulkiga aniq zarar yetkazish yoki yo'qotish qo'rquviga solish

317. B. Kiberta'qib qilish: Ta'qib qilishga kiberta'qib qilish va/yoki elektron aloqa qurilmalari orqali ta'qib qilish kiradi, bu ijtimoiy tarmoqlar, e-pochta, oniy xabarlar, matnli xabarlar, tvitlar (Twitter orqali), bloglar, surat va videolarni ulashish, chat xonalari, asboblarni panellari yoki veb-saytlar orqali amalga oshiriladi. Kiberta'qib qilishga ayrim mezonlar ostida maktabdan tashqaridagi harakatlar ham kirishi mumkin. Ta'qib qilish/xarasmentni taqiqlash siyosatining to'liq varianti, shikoyat kiritish va surishtiruv tartib-qoidalari bilan Maktab okrugining veb-sayti www.pps.k12.pa.us/Page/481 da, har bir bino va sinfda tanishish mumkin.

318. Sinash: Sinash biror shaxs qasddan, bilib turib yoki e'tiborsiz shaklda boshqa o'quvchini tashkilotga qabul qilish, kiritish yoki bog'lash maqsadida yoki tashkilotdagi a'zolikni yoki maqomni davom ettirish yoki kengaytirish maqsadida o'quvchini quyidagilarni amalga oshirishga sabab bo'lsa, majburlasa amalga oshgan bo'ladi:

1. Federal yoki shtat jinoiy qonunchiligini buzish.
2. O'quvchini ruhiy yoki jismoniy zarar ko'rish xatariga tushiradigan har qanday taom, suyuqlik, alkohol ichimlik, narkotik yoki boshqa moddalar iste'mol qilish.
3. Ruhiy tabiatga ega shafqatsizlikka chidash, jumladan, shaxsning ruhiy salomatligi yoki qadr-qimmatiga salbiy ta'sir etuvchi harakat, uyqudan ayirish, ijtimoiy aloqadan chetlatish yoki haddan tashqari uyaltiruvchi harakatlarni amalga oshirish.
4. Jinsiy shafqatsizlikka chidash.
5. O'quvchining jarohat olishi ehtimoliga olib keladigan har qanday harakatlarga chidash.

Yuqorida tasvirlangan har qanday harakat o'quvchining roziligi olingan bo'lishidan qat'iy nazar sinash deb hisoblanadi.

321. Terrorchilik tahdidlari: Boshqalarni qo'rqitish niyatida jinoyat qilish bilan bevosita yoki bilvosita tahdid qilish; bundan maqsad bino, odamlar gavjum joylar yoki jamoat transportini evakuatsiya qilishga erishish; yoki boshqa shaklda jamoat tartibini jiddiy buzish yoki bunday qo'rqitish yoki noqulaylik tug'dirishning oqibatlarini o'ylamasdan odamlarni qo'rqitish yoki jamoatda tartibsizlik yaratish.

322. Jinsiy aloqa/nojo'ya harakatlar: Ushbu qoidabuzarlik darajasidagi jinsiy nojo'ya harakatlarga maktab hududidagi jinsiy aloqa, oral jinsiy aloqa yoki jinsiy aloqa simulyatsiyasi kiradi.

***323. Tinchlikni buzish yoki jang:** Bir guruh shaxslar orasida jiddiy tartibsizlik yoki jang keltirib chiqarish va bu bir necha maktab xodimlari va maktab xavfsizlik xodimlarining ushbu tartibsizlikni bostirish uchun aralashuviga olib kelishi.

***326.A. Maktab mulkini o'g'rilash, bosqinchilik yoki o'marish:** O'quvchi maktab mulkini o'g'irlashi, bosqinchilik qilishi yoki o'marish harakatlarini amalga oshirmasligi lozim. Ushbu qoidabuzarlik darajasida o'g'rilik, bosqinchilik yoki o'marish darajasi \$100 dan ortadi.

***326.B. O'quvchining shaxsiy mulkini o'g'rilash, bosqinchilik yoki o'marish:** O'quvchi boshqa o'quvchining mulkini o'g'irlashi, bosqinchilik qilishi yoki o'marish harakatlarini amalga oshirmasligi lozim. Ushbu qoidabuzarlik darajasida o'g'rilik, bosqinchilik yoki o'marish darajasi \$100 dan ortadi.

3-daraja – Yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi aralashuvga misollar

Quyidagi ro'yxat ehtimoliy variantlar menyusi sifatida taqdim etilgan va ketma-ket foydalanishni nazarda tutmaydi. Aralashuvlar barchaga mos keladigan bitta yondashuv bilan emas, balki individual amalga oshirilishi kerak.

- Qayta tiklovchi amaliyotlardan foydalanish (ya'ni emotsional bayonotlar, qayta tiklovchi savollar, doiralar, kichik eksprompt anjumanlar, rasmiy qayta tiklovchi anjumanlar va h.k.)
- Ko'pbosqichli ko'mak tizimiga (MTSS) yo'naltirish jarayoni
- Maktabdagi nizolarni hal etuvchi dasturlarga yo'llash (masalan, tengqurlar vositachiligi, qayta tiklash anjumani) •
- O'quvchi/o'qituvchi anjumani
- Ota-ona yoki vasiy/o'qituvchi anjumani
- Qayta o'qitish/namuna kutilmalari
- O'quvchi/ma'mur anjumani
- Maslahatchilar/yo'naltirish anjumanini o'tkazish orqali aralashuv
- Yozma aks ettirish vazifasi
- O'quvchining alohida rejalashtirish vositalarini ishlab chiqish, ko'rib chiqish yoki o'zgartirish (masalan, Axloqni qo'llabquvvatlash rejasi)

<ul style="list-style-type: none"> • Jadval yoki darsga o'zgartirish kiritish (ota-ona/vasiyni ogohlantirgan holda) • Alohida/guruh ichida maslahatlashuv • Oldini olish (masalan, jahlni boshqarish, agressiyani almashtirish, tashkiliy ko'nikmalar kabi ijtimoiy emotsional ko'nikmalarni o'rgatish guruhlari) va/yoki aralashuv (masalan, xulqiy salomatlik maslahatlashuvi) xizmatlari uchun O'quvchilarga yordam dasturiga (SAP) yo'naltirish • O'quvchining axloq rejasi • O'rgatish dasturiga yo'llash • Maktab okrugi tasdiqlagan hamjamiyat tashkilotiga (CBO) yo'naltirish • Hamjamiyatga xizmat qilish (ota-ona ruxsati bilan) • Ijobiy xulqiy boshqarishga ko'mak shartnomasi • Alkogol/narkotiklar iste'molini baholashga yo'llash • Chetlatishga oid intizomiy choralarning (chetlatuvchi intizomiy choralarga axloq tuzatish, maktabda chetlatish, maktabdan tashqarida chetlatish kiradi) boshqa tegishli muqobil variantlari
Foydalanilgan yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi aralashuvdan keyingi yoki qo'shimcha tavsiya etilgan intizomiy choralar misollari (3-daraja)
<ul style="list-style-type: none"> • Dala safarlari, qurultoylar yoki maxsus imtiyozlarni to'xtatish • O'qishdan tashqari amaliyotlardan chetlatish • Transportda yurish imtiyozlarini to'xtatish • Maxsus tadbirlar yoki aksiya mashqlaridan chetlatish • Maktab kodeksining 1303-A(b) bo'limi va 22 Pa. kodeksining 10.22-bo'limiga muvofiq maktab politsiyasiga yo'llash va maslahatlashish. • Maktabdan tashqarida chetlatish (4-10 kun)
Maktabdan tashqarida chetlatish olgan o'quvchi bir xil qoidabuzarlik uchun ikki marta intizomiy jazoga tortilmasligi kerak. Agar o'quvchi maktabdan tashqari chetlatish jazosini o'tash vaqtida dala safarlari, qurultoylar yoki boshqa tadbirlar o'tkazilsa, ular bunday tadbirda qatnasha olmaydi; ammo, agar tadbir o'quvchi maktabdan tashqarida chetlatish jazosini o'tayotgan vaqtdan tashqarida sodir bo'lsa, xavfsizlik bilan bog'liq muammolar bo'lmagan holatlarda ular bunday tadbirdan chetlatilmaydi.

4-daraja harakatlari jiddiyroq tabiatga ega va boshqa insonlarning salomatligi, xavfsizligi yoki mol-mulkiga tahdid uyg'otadi. 4-darajali qoidabuzarlik yuz berganda maktab ma'muri intizomiy chora ko'rish uchun yo'llash yoki hodisani tasvirlovchi bayonot yuborish orqali xabardor qilinadi. 4-darajali harakatlar uchun o'quvchilar o'qishdan chetlatishlari yoki haydalishtirishlari mumkin. Maktab ma'murlari hujum qilish, og'irlashtiruvchi hujum qilish yoki qurolga oid ayblovlarini e'lon qilishdan oldin o'zlari tayinlagan superintendant yordamchisi bilan maslahatlashishlari lozim. Kursiv bilan yozilgan harakatlar uchun Maktab kodeksining 1303-A(b) bo'limi va 22 Pa. kodeksining 10.22-bo'limiga asosan yo'llash va maslahatlashish.

404. Maktab xodimiga hujum qilish: O'quvchi maktab xodimi yoki pudratchiga qarshi quyidagi harakatlarning birortasini amalga oshirsa: (1) jismoniy provokatsiyasiz maktab xodimiga qasddan, bilib turib yoki beparvolik bilan tan jarohati yetkazishi yoki yetkazishga urinishi; (2) beparvolik oqibatida boshqa odamga o'tochar qurol bilan tan jarohati yetkazishi; yoki (3) jismoniy zo'rvonlik bilan boshqa odamni muqarrar jiddiy tan jarohati yetkazish bilan qo'rqitish.

405.A. O'quvchiga yoki maktab xodimi bo'lmagan shaxsga hujum qilish: O'quvchi qasddan va provokatsiya bo'lmaganda boshqa o'quvchi yoki maktab xodimi bo'lmagan shaxsni turtishi, urishi, tepishi. Hujum qilish ta'rifiga mos kelmaydigan boshqa jismoniy harakatlar urushish, ta'qib qilish va/yoki xarasmentga qarshi

taqiqlarga mos kelishi mumkin.

***405.B. O'quvchiga yoki maktab xodimi bo'lmagan shaxsga og'irlashtiruvchi hujum qilish** O'quvchi

(1) boshqa odamga jiddiy tan jarohati yetkazishga urinishi yoki bunday tan jarohatini odam hayotiga o'ta befarqlikni namoyon etgan holda qasddan, bilib turib yoki beparvolik oqibatida yetkazishi; yoki (2) qasddan va bilib turib boshqa odamga o'tochar qurol bilan tan jarohati yetkazishi.

***406. Qurollar va xavfli asboblari:** O'quvchi har qanday maktab hududida, maktab homiyligidagi yoki maktab tasdiqlagan tadbirda yoki yurganda yoki har qanday ko'rinishda maktabdan yoki maktabga yoki maktab homiyligidagi yoki maktab tasdiqlagan tadbirga transportda ketganda Pensilvaniya maktab kodeksi tomonidan qurol sifatida belgilangan har qanday narsani (keyingi o'rinlarda "qurol") olib yurishi, foydalanishi yoki tashishi mumkin emas.

- a. **Nizomda belgilangan qurollar.** Maktab kodeksiga ko'ra "Qurol" atamasiga quyidagilar bilan cheklanmagan holda har qanday pichoq, kesuvchi asbob, kesish vositasi, portlovchi modda, nunchaki, o'tochar qurol, drobovik, miltiq, va/yoki jiddiy tan jarohati yetkazishi mumkin bo'lgan har qanday boshqa asbob, qurol yoki vosita kiradi. Vosita qurol ekanini aniqlashda maktablar buyumdan qanday obyektiv va funksional maqsadda foydalanish mumkinligini hisobga olishlari lozim. O'quvchi buyumdan qanday foydalanishi qurol bo'lmagan buyumni qurolga aylantirmaydi.
- b. **O'zini himoyalash vositalari.** O'zini himoyalash vositalari – bu o'zini himoya qilish maqsadida ishlab chiqarilgan yoki keng miqyosda foydalaniladigan vosita, asbob yoki uskuna. Bunday vositalarga qalampirli sprey, o'zini himoyalash uchun kalit zanjirlar, o'zini himoyalash halqalari, taktik ruchkalar yoki chiroqlar va kubatonlar misol bo'ladi, lekin bular bilan cheklanmaydi. Agar o'quvchi boshqa shaxsga qarshi o'zini himoyalash vositasidan foydalangan yoki foydalanish bilan tahdid qilgan bo'lsa, PPS o'quvchini qurollarda foydalanish qoidalarini buzganlikda ayblaydi.
- c. **O'xshash vosita.** Pichoq, kesuvchi asbob, kesish vositasi, nunchaki, o'qotar qurol, drobovik yoki miltiqqa taqlid qiluvchi har qanday element. O'quvchilar ko'pincha o'yinchoqlar yoki kiyim aksessuarlari sifatida sotiladigan o'xshash narsalarga ega bo'lishi mumkin bo'lsa-da, bunday narsalar maktab muhitida yoki maktab homiyligidagi tadbirlarda taqiqlanadi. O'quvchilar olib keladigan o'xshash narsalar musodara qilinadi va agar bu narsa ushbu O'quvchining axloq kodeksida taqiqlangan boshqa xatti-harakatlarni amalga oshirish uchun ishlatilmagan bo'lsa, hech qanday intizomiy javobgarlikka tortilmaydi.

***407. Alkogol yoki narkotik moddalarni olib yurish, foydalanish yoki ta'sirida bo'lish:** Ko'p miqdorda narkotik moddalarga (ya'ni 5 grammdan ortiq marixuana) ega bo'lgan o'quvchilar; Boshqariladigan moddalar qonunining¹ I dan V jadvallari, ya'ni Adderallda belgilangan narkotiklar; va takrorlangan narkotiklarga oid qoidabuzarliklar 4-darajali qoidabuzarlik hisoblanadi. O'quvchi hech qanday mast qiluvchi moddani olib yurmasligi, foydalanmasligi yoki ta'siri ostida bo'lmasligi lozim.

Ammo, chetlatishga oid intizomiy chorani kamaytirish uchun, keyingi bet(lar)dagi narkotik yoki alkogolga oid qoidabuzarliklar toifalariga asosan qoidabuzarlik darajasiga qarab chora ko'rish belgilangan. Bunga barcha narkotik moddalarni olib yurish; tarqatish niyati shartiga javob beradigan katta miqdorlar; 5 gramm marixuana va 5 grammdan ko'p marixuana va alkogolga oid qoidabuzarlikning bir o'quv yili davomida takrorlanishi kiradi.

O'quvchi tomonidan narkotik moddadan ro'yxatga olingan tibbiyot xodimining tibbiy ruxsati bilan foydalanish ushbu qoidani buzish sanalmaydi, ammo Dorilardan foydalanish qoidalari talabini buzish deb sanalishi mumkin. Dorilardan foydalanish qoidalari talablarini bajarmaslik intizomiy chora qo'llanilishiga olib kelishi mumkin.

Maktab okrugining haydashga oid intizomiy chorani kamaytirishga qaratilgan islohotlarini davom ettirishning

bir qismi sifatida narkotiklar va alkogolga oid qoidabuzarliklarga nisbatan bosqichlarga ajratilgan ma'muriy choralar tartibi qabul qilingan.

Quyidagi bosqichli choralar jadvaliga oid ta'riflar keyingi sahifada keltirilgan.

- Narkotiklar: Boshqariladigan moddalar qonunining I dan V jadvallari (21 U.S.C. § 812) va 21 C.F.R. qonuni 1308.11 dan 1308.15 qismigacha tafsilotlari ta'rifiga ko'ra, yoki Boshqariladigan moddalar, narkotiklar, qurilmalar va kosmetik vositalar qonuni (35 P.S. §780-101), Pensilvaniya narkotiklar va alkogol iste'molini nazorat qilish qonuni (71 P.S. §1690.101), (birgalikda "Qonunlar") ta'rifiga ko'ra yoki har qanday boshqa Pensilvaniya narkotiklar va alkogol iste'molini nazorat qilish qonuni (71 P.S. §1690.101), (birgalikda "Qonunlar") ta'rifiga ko'ra yoki har qanday boshqa Qonunlarga aloqador normativlar yoki har qanday aloqador nizomlar va normativlar
- ¹ Boshqariladigan moddalar qonuni (21 U.S.C. § 812) va 21 C.F.R. qonuni 1308.11 dan 1308.15 qismigacha tafsilotlari iste'molini nazorat qilish qonuni (71 P.S. §1690.101), (birgalikda "Qonunlar") ta'rifiga ko'ra yoki har qanday boshqa Pensilvaniya narkotiklar va alkogol iste'molini nazorat qilish qonuni (71 P.S. §1690.101), (birgalikda "Qonunlar") ta'rifiga ko'ra yoki har qanday boshqa Qonunlarga aloqador normativlar yoki har qanday aloqador nizomlar va normativlar
- Marixuana: Marixuana, kannabis, THC moyi yoki bularning har qanday shakldagi modda, jumladan, quyidagilar bilan cheklanmagan holda mumiyo, yeyiladigan, tabletkalar, yog', gellar, kremlar yoki maz kabi topik shakli, bug'lanish yoki sepish orqali yuboriladigan shakllar, damlama yoki suyuqlik kiradi.
- Alkogol: Har qanday alkogol ichimlik, solod ichimlik, kuchaytirilgan vino yoki boshqa mast qiluvchi likyor.
- Shaxsiy buyumlar: O'rama qog'ozlar, mundshtuk qisqichlar, xemostat, naychalar va naycha qismlari va narkotik iste'moli uchun boshqa uy sharoitida yasalgan buyumlar.
- Narkotik qoldig'i: Narkotik moddaning katta qismi foydalanilgan yoki olib tashlangandan keyin qoladigan narkotik moddalarning kichik va o'ta kichik izlari (masalan, chekilgan marixuanadan paydo bo'ladigan smola).
- Takrorlangan narkotiklar va alkogolga oid qoidabuzarlik: Ayni o'quv yilida ikkinchi yoki undan keyingi narkotik modda va alkogolga oid qoidabuzarlik. Bir o'quv yilidagi jami qoidabuzarliklar o'quvchi oldin borgan maktablardagi qoidabuzarliklarni ham ichiga oladi. Ma'lum o'quv yilida o'quvchi bittadan ortiq narkotik moddalar va alkogolga oid qoidabuzarlik qilsa, keyingi o'quv yilidagi har qanday narkotik modda va alkogolga oid qoidabuzarlik takroriy hisoblanishi lozim.
- ATOD dasturi: Alkogol, tamaki va boshqa narkotiklardan qaytarish dasturi
- IAES: Oraliq muqobil ta'lim maskani

Narkotiklarga oid qoidabuzarliklar toifalari va choralar tuzilmasi

Quyidagi choralar tuzilmasi grafigi IEP xizmatlaridan foydalanmaydigan odatiy ta'lim oluvchi o'quvchilarga nisbatan qo'llaniladi. IEP xizmatlaridan foydalanadigan o'quvchilarga nisbatan choralar tuzilmasi kursiv shaklida choralar tuzilmasi grafigida ko'rsatilgan. 504-rejasiga ega o'quvchilar va Okrug o'quvchining nogironligi haqida ma'lumotga ega deb hisoblangan o'quvchilarga (ya'ni, "o'ylangan") IEP o'quvchilariga taqdim etiladigan himoya choralarini qo'llaniladi. Jiddiy qoidabuzarliklar uchun 504-rejasiga ega o'quvchi 45 kunlik bir tomonlama muqobil joylashga avtomatik ravishda o'tkazilmasada, o'quvchining 504 jamoasi, jumladan, ota-ona/vasiy agar 504 rejasidagi xizmatlar muqobil sharoitlarda ham samarali qo'llanilishi mumkin bo'lsa 45 kunlik muqobil joylash muvofiq kelishiga rozilik bildirishi mumkin. Maktablar yo'l-yo'riq olish uchun O'quvchilarga yordam berish

xizmatlari boshqarmasi va Yuridik boshqarma bilan maslahatlashishi lozim.

3-daraja/307-qoida buzilishlari uchun belgilangan chetlatish vaqti ramkalari Alkogol, tamaki va boshqa narkotik moddalar (ATOD) dasturiga qatnaganda qisqartirilishi mumkin. Aniqrog'i, o'quvchi besh (5) kun chetlatishni (IEP dasturidagi o'quvchi ikki (2) kunlik chetlatishni) o'taydi va qolgan kunlar quyidagi yo'riqnomalarda keltirilganidek, ATOD dasturida ishtirok etish sharti bilan qo'llanilmaydi

O'quvchilar boshqariladigan birorta moddani, jumladan, marixuanani saqlamasligi, ishlatmasligi, tarqatmasligi yoki uni ta'siri ostida bo'lmasligi kerak. PPS shtatning Tibbiy marixuana bo'yicha Qonuni 35 Pa.C.S. § 10231.101 va boshqa qoidalari natijasida marixuanadan tibbiy maqsadlarda ko'proq foydalanish mumkin bo'lganini tan oladi. Biroq, marixuana federal qonunga ko'ra noqonuniy modda hisoblanadi. Pensilvaniya shtatining tibbiy maqsadlarda marixuanani qonuniylashtirishi federal narkotik moddalarga oid qonunlar, jumladan, maktab mulkida narkotik moddalar mavjudligi va ulardan foydalanishni taqiqlovchi qonunlar, shu jumladan, Har bir o'quvchi muvaffaqiyatga erishishi to'g'risidagi Qonunning 20 U.S.C. § 71118- moddasi bajarilishini bekor qilmaydi. Marixuana saqlash shtat va federal qonunlarga muvofiq jinoiy huquqbuzarlik hisoblanadi va shuningdek, Maktab okrugining narkotik moddalar va alkogol bo'yicha 217-qoidasini buzish hisoblanadi: <https://go.boarddocs.com/pa/pghboe/Board.nsf/Public#>.

Maktab hududida marixuanani taqiqlash marixuana, THC yoki har qanday shakldagi THClarga, jumladan, marixuana mahsulotlariga ham tegishli hisoblanadi. Marixuananing taqiqlangan shakllariga ushbu moddalarning har qanday shakllarini, jumladan, lekin bular bilan cheklanmagan holda, mumiyo, yeyiladigan, tabletka, yog', gellar, kremlar yoki maz kabi topik shakllar, ekstraktlar, gul yoki kurtak shakllari, bug'lanish yoki sepish orqali yuboriladigan shakllar, damlama yoki suyuqlik kiradi. PPS maktab hududida marixuana yoki marixuana mahsulotlarini saqlashga oid har qanday shtat yoki federal ko'rsatmalarga amal qiladi.

Birinchi qoidabuzarlikda 5 grammdan kam marixuanaga egalik qilishi aniqlangan o'quvchilar Axloq kodeksining 307-qoidasini buzgan hisoblanadi. 5 gramm yoki undan ko'p marixuanaga ega bo'lgan yoki ikkinchi qoidabuzarlikda 5 grammdan kam marixuanaga egalik qilishi aniqlangan o'quvchilar Axloq kodeksining 407-qoidasini buzgan hisoblanadi. O'zining tibbiy holati uchun foydalanishga rusxat beruvchi tibbiy marixuana retsepti, kartasi yoki sertifikatini taqdim etadigan o'quvchilar maktab hududida marixuana saqlash yoki undan foydalanish uchun intizomiy jazoga tortilmaydi. Biroq, barcha boshqariladigan moddalar, jumladan, marixuana, maktab ma'muriyati tomonidan musodara qilinadi va Maktab xavfsizligi bo'limiga taqdim etiladi.

Narkotiklarga oid qoidabuzarliklar toifalari	3-daraja 10 kunlik chetlatish 3 kunlik chetlatish*	4-daraja 10 kunlik chetlatish + haydash (muqobil ta'lim olish) 3 kunlik chetlatish + 45 kunlik Oraliq muqobil ta'lim olish maskaniga joylash
Narkotik tashuvchi buyumlar (Birinchi va takrorlangan qoidabuzarlik)	Marixuana qoldiqlari bor narkotik tashuvchi buyumlarga egalik qilish (qoldiqlar yoki 5 grammdan kam miqdorda)	Marixuana qoldiqlari bor narkotik tashuvchi buyumlarga egalik qilishning takrorlanishi (har qanday miqdorda)

Narkotik turi: Alkogol, marixuana yoki boshqa narkotiklar (Birinchi yoki takroriy qoidabuzarlik)	Birinchi bor alkogol olib yurishga oid qoidabuzarlik; Birinchi bor marixuana olib yurishga oid qoidabuzarlik (qoldiq yoki 5 grammdan kam miqdorda)	Takroran alkogol olib yurishga oid qoidabuzarlik **; Takroran marixuana olib yurishga oid qoidabuzarlik (har qanday miqdor); Birinchi bor marixuana olib yurishga oid qoidabuzarlik (5 gramm yoki 5 grammdan ko'p); Marixuanadan boshqa narkotiklarni olib yurish
Tarqatish niyati		5 gramm yoki 5 grammdan ko'p marixuana olib yurish
Miqdor	Marixuana olib yurish (qoldiqlar yoki 5 grammdan kam miqdorda)	5 gramm, 5 grammdan ko'p miqdorda marixuana, boshqa narkotik yoki alkogol olib yurish

Axloq kodeksiga oid qoidabuzarlik darajasi bo'yicha xizmatlar turi Daraja	Qo'llab-quvvatlash bosqichlari	Dastur va xizmat provayderi***
3-bosqich: Takroriy va/yoki jiddiy qoidabuzarliklar	Maktabdan chetlatishga muqobil SAP tekshiruviga yo'naltirish (ATOSS) Dasturlash Narkotiklarga qarshi ta'lim berish va xizmatlar (Axloq kodeksining buzilishi: darajali 4)	O'quvchilarning erishgan natijalari markazi ATOSS dasturi/muqobil ta'limga joylash maxsus SAP provayderlari (o'quvchilar muqobil ta'limga joylangan paytda xizmatlardan foydalanishlari mumkin bo'ladi) Uyda ambulator davolash
2-bosqich: Birinchi bor qilingan kichik qoidabuzarliklar	Maktabdan chetlatishga muqobil SAP tekshiruviga yo'naltirish (ATOSS) Dasturlash (Axloq kodeksining buzilishi: darajali 3)	Maxsus SAP provayderlari SHORES O'quvchilarning erishgan natijalari markazi ATOSS dasturi/ATOSS dasturini boshqaradigan muqobil ta'limga joylash markazi Yoshlarga narkotiklarga qarshi ta'lim berishning Three Rivers dasturi
1-bosqich: Umumiy oldini olish choralari	Narkotiklardan ogohlik va ta'lim beruvchi ma'ruzachilar	Allegeni qayta tiklash jamoasi CVS dasturi opioid narkotiklardan ogohlik ta'limini boshqaradi

- O'quvchilarga ATOD dasturiga qatnashish va amal qilish uchun cheklatish kunlarini to'xtatib turish imkoniyati beriladi.
- Yodda tuting: IEP o'quvchilari alkogol va narkotik tashuvchi buyumga egalik qilganlik uchun 45 kunlik IAES dasturiga yo'llanishi mumkin. IEP o'quvchilari "Narkotik" atamasi qonuniy ravishda ega bo'lgan yoki litsenziyalangan tibbiy mutaxassis nazorati ostida foydalanilgan yoki qonuniy ravishda egalik qiladigan yoki 34 C.F.R. 300,530
- Dasturlash yildan-yilga uzaytirilishi mumkinligi sababli, eng oxirgi ro'yxat bilan tanishish uchun veb-saytga tashrif buyuring: www.pghschools.org/conduct

Alkogol, tamaki va boshqa narkotik moddalar (ATOD) dasturi

Maktab okrugi narkotiklar, alkogol va tamakiga oid O'quvchining axloq kodeksi qoidalarini buzgan o'quvchilarni alkogol, tamaki va boshqa narkotiklardan (ATOD) qaytarish dasturini taqdim etadi. O'quvchilarga virtual muhitda to'qqiz (9) soatlik dasturni tugallash uchun to'qson (90) kun beriladi.

O'quvchilar qo'shimcha chetlatish kunlari qo'llanilmasligi uchun yuqorida ta'kidlangan kurslarni qoidabuzarlikdan keyin 90 kun ichida bitirishlari lozim.

Maktab mudiri yoki narkotiklar va alkogol qoidabuzarliklari uchun intizomiy choralarga mas'ul tayinlangan vakil o'quvchi va ota-ona/vasiyga eng so'nggi ATOD xizmatlari va ko'mak ma'lumotlari nusxasini dastlabki Chetlatish haqidagi bildirgi bilan birga taqdim etishi lozim. ATOD xizmatlari va ko'mak ma'lumotlarida barcha ATOD dasturi xizmatlari va ko'maklarining sanalari, vaqti va joylarini ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

ATOD xizmatlari va ko'maklari o'quvchilar uchun ham faol qo'llanilishi mumkin. Masalan, kayfi borligida yoki marixuana hidlaganda ushlab olingan o'quvchilarga.

Axloq kodeksini buzganlik uchun huquqni muhofaza qiluvchi xodimlar tomonidan qamoqqa olingan o'quvchilar uchun belgilangan maktabdan chetlatish ular qo'yib yuborilmaguncha boshlanmaydi. Shu kabi, ATOD dasturini tugatish uchun ajratilgan 60 kunlik muhlat o'quvchi qamoqdan chiqarilmaguncha boshlanmaydi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning aralashuvi va moddalarni tekshirish

O'quvchida Kengash siyosatiga ko'ra taqiqlangan narkotiklar yoki alkogol aniqlanganda, ushbu qoidabuzarlik haqida Maktab xavfsizlik boshqarmasiga zudlik bilan xabar beriladi. Shundan keyin Maktab xavfsizlik boshqarmasining tegishli dalillarni saqlash va qo'lga olish tartib-qoidalari amalga oshiriladi. Maxsus tayinlangan Maktab xavfsizlik boshqarmasining maktab politsiya xodimi taqiqlangan modda yoki buyumni qutiga solish uchun javobgar bo'ladi. Taqiqlangan modda yoki qoldiqning dastlabki dala sharoitidagi tekshiruvi uchun maxsus tayinlangan Maktab politsiya xodimi javobgar bo'ladi. Moddalar shundan keyin tekshirish va torozida tortish uchun Allegeni okrugi jinoiy ishlar laboratoriyasiga yuboriladi. Laboratoriya natijalari va narkotiklarga oid kimyoviy bo'limning maxfiy hisoboti Maktab xavfsizlik boshqarmasiga yuboriladi. Jinoiy ishlar laboratoriyasi hisoboti shundan keyin O'quvchilarga yordam berish xizmatlari boshqarmasiga yuboriladi.

THC yog'i bor veyp ruchkasini olib yurish Maktab okrugining narkotiklar va alkogolga oid siyosatini buzish sanaladi. Veyp ruchkasi tarkibi THC yog'i bor yoki yo'qligini tekshirish uchun laboratoriyaga yuboriladi. Tarkibida THC yog'i bo'lgan bir yoki ikkita veyp ruchkasini olib yurgan o'quvchilar 307-qoida bo'yicha baholanadi.

Tarkibida THC yog'i bo'lgan uch (3) yoki undan ko'p veyp ruchkasini olib yurgan o'quvchilar 407-qoida bo'yicha baholanadi. Veyp ruchkasini olib yurishga oid qoidabuzarliklarning takrorlanishi ham 407-qoidaga asosan ko'rib chiqiladi.

408 O't qo'yish: Atayin o't qo'yish yoki portlatish, yoki boshqa insonga o't qo'yish yoki portlatishga yordam berish, so'rash yoki aytish va buning oqibatida o'sha joydagi mulkning zarar ko'rish yoki shaxsning (jumladan, o't o'chiruvchilar) jarohat olish xavfiga yo'liqishi.

418 Og'irlashtiruvchi sinash: Shaxs 218 yoki 318-qoidada ta'riflangan sinashni amalga oshirganda va buning oqibatida o'quvchi jiddiy tan jarohati olganda yoki o'lganda yuz beradi va bunda:

1. O'quvchi qurbon o'quvchining salomatligi va xavfsizligiga beparvolik bilan harakat qiladi; yoki
2. O'quvchi qurbon o'quvchini alkogol ichimlik yoki narkotik modda iste'mol qilishga majbur qiladi.

Maktab ma'murlari o'quvchini hujum qilish yoki qurolga oid qoidabuzarlikda ayblashdan oldin O'quvchilarga yordam berish xizmatlari boshqarmasi bilan maslahatlashishlari lozim.

4-daraja – Yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi aralashuvga misollar

Quyidagi ro'yxat ehtimoliy variantlar menyusi sifatida taqdim etilgan va ketma-ket foydalanishni nazarda tutmaydi. Aralashuvlar barchaga mos keladigan bitta yondashuv bilan emas, balki individual amalga oshirilishi kerak.

- Qayta tiklovchi amaliyotlardan foydalanish (ya'ni emotsional bayonotlar, qayta tiklovchi savollar, doiralar, kichik eksprompt anjumanlar, rasmiy qayta tiklovchi anjumanlar va h.k.)
- Ko'pbosqichli ko'mak tizimiga (MTSS) yo'naltirish jarayoni
- Maktabdagi nizolarni hal etuvchi dasturlarga yo'llash (masalan, tengqurlar vositachiligi, qayta tiklash anjumani)
- O'quvchi/o'qituvchi anjumani
- Ota-ona yoki vasiy/o'qituvchi anjumani
- O'quvchi/ma'mur anjumani
- Maslahatchilar/yo'naltirish anjumanini o'tkazish orqali aralashuv
- Yozma aks ettirish vazifasi
- O'quvchining alohida rejalashtirish vositalarini ishlab chiqish, ko'rib chiqish yoki o'zgartirish (masalan, Axloqni qo'llabquvvatlash rejasi) •
- Jadval yoki darsga o'zgartirish kiritish (ota-ona/vasiyni ogohlantirgan holda)
- Alohida/guruh ichida maslahatlashuv
- Oldini olish (masalan, jahlni boshqarish, agressiyani almashtirish, tashkiliy ko'nikmalar kabi ijtimoiy emotsional ko'nikmalarni o'rgatish guruhlari) va/yoki aralashuv (masalan, xulqiy salomatlik maslahatlashuvi) xizmatlari uchun O'quvchilarga yordam dasturiga (SAP) yo'naltirish
- O'quvchining axloq rejasi
- O'rgatish dasturiga yo'llash
- Maktab okrugi tasdiqlagan hamjamiyat tashkilotiga (CBO) yo'naltirish
- Hamjamiyatga xizmat qilish (ota-ona ruxsati bilan)
- Ijobiy xulqiy boshqarishga ko'mak shartnomasi
- Alkogol/narkotiklar iste'molini baholashga yo'llash
- Chetlatishga oid intizomiy choralarning (chetlatuvchi intizomiy choralarga axloq tuzatish, maktabda chetlatish, maktabdan tashqarida chetlatish kiradi) boshqa tegishli muqobil variantlari

Foydalanilgan yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi aralashuvdan keyingi yoki qo'shimcha tavsiya etilgan intizomiy choralar

misollari (4-daraja)

- Dala safarlari, qurultoylar yoki maxsus imtiyozlarni to'xtatish
- O'qishdan tashqari amaliyotlardan chetlatish
- Transportda yurish imtiyozlarini to'xtatish
- Maxsus tadbirlar yoki aksiya mashqlaridan chetlatish.
- Maktab kodeksining 1303-A(b) bo'limi va 22 Pa. kodeksining 10.22-bo'limiga muvofiq maktab politsiyasiga yo'llash va maslahatlashish.
- Maktabdan tashqarida chetlatish
- Chetlatish/haydash (11 yoki undan ko'proq kunga)
- Muqobil ta'limga joylash

Maktabdan tashqarida chetlatish olgan o'quvchi bir xil qoidabuzarlik uchun ikki marta intizomiy jazoga tortilmasligi kerak. Agar o'quvchi maktabdan tashqari chetlatish jazosini o'tash vaqtida dala safarlari, qurultoylar yoki boshqa tadbirlar o'tkazilsa, ular bunday tadbirda qatnasha olmaydi; ammo, agar tadbir o'quvchi maktabdan tashqarida chetlatish jazosini o'tayotgan vaqtdan tashqarida sodir bo'lsa, xavfsizlik bilan bog'liq muammolar bo'lmagan holatlarda ular bunday tadbirdan chetlatilmaydi.